


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)











2021- yil yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 298,8 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,7 %** ga o'sishi ta'minlandi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari, ming so'm
(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	2020 y.	2021 y.
Jizzax viloyati	1820,4	2059,5
<i>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</i>		
 Sanoat	2428,6	2412,2
 Qurilish	1958,8	2328,2
 Savdo	2734,0	2428,5
 Tashish va saqlash	1643,8	1814,3
 Yashash va ovqatlanish	1692,8	2369,0
 Axborot va aloqa	2602,3	3363,5
 Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	5517,2	5076,1
 Ta'lim	2057,4	2217,1
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1750,0	1899,1
 San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2275,4	2847,0
 Boshqa faoliyat turlari	2274,2	2426,2



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar, mln. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
Viloyat bo'yicha - jami	2 321	100 346	686 233,1	2298,8
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	32	13 493	97 642,5	2412,2
Qurilish	5	159	1 110,6	2328,2
Savdo	16	1 377	10 032,2	2428,5
Tashish va saqlash	7	1 114	6 063,3	1814,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	61	433,5	2369,0
Axborot va aloqa	17	485	4 893,9	3363,5
Bank, sug'urta va vositachilik	23	1 977	30 106,3	5076,1
Ta'lim	941	47 205	313 978,0	2217,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	71	19 004	108 269,1	1899,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	65	868	7 413,6	2847,0
Boshqa faoliyat turlari	1 140	14 603	106 290,0	2426,2

Ish haqi. 2021- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Sanoat sohasida **32** ta korxonada **13 493** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **13,4 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **97 642,5** mln so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **14,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2412,2** ming so'mni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **99,3 %** ga pasaydi.






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Paxtakor **135,7 %**, Jizzax shahri - **106,8%**, Sh.Rashidov -**101,3 %** Forish - **100,2 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zomin - **97,8 %**, Zarbdor – **94,7 %**, Do'stlik - **73,6 %**, tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:







Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Qurilish sohasida **5** ta korxonada **159** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,2 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **1 110,6** mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **0,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2328,2** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **18,9 %** ga o'sdi.




O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **116,3 %**, Mirzacho'l tumanida - **102,5 %** viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Paxtakor - **71,0 %** va Zafarobod - **68,5 %** tumanlarida kuzatildi.






Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasida **16** ta korxonada **1 377** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,4 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **10 032,2** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **1,5 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 428,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **88,8 %** ga pasaydi.






Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri **-105,5 %** ga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Baxmal **-75,2 %**, Mirzacho'l – **59,1 %** hamda Do'stlik **-44,9 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:







Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Ta'lim sohasida **941** ta muassasada **47 205** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **47,0 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **313 978,0** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **45,7 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2217,1** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **7,8 %** ga o'sdi .



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – **126,9 %**, Baxmal **-108,6 %** va Zomin tumanlari **-102,9 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Zarbdor **-99,1 %**, Arnasoy - **95,1 %**, Sh.Rashidov - **93,1 %** hamda Paxtakor **-90,3 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **71** ta muassasada **19 004** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **18,9 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **108 269,1** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **15,8 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1899,0** ming so'mni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **8,5 %** ga o'sdi.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Mirzacho'l - **113,1 %**, Jizzax shahri - **112,9 %**, Arnasoy - **106,5 %**, Zafarobod - **106,1 %** va Do'stlik - **103,9 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Hususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari G'allaorol - **-97,4 %**, Baxmal - **96,5 %**, Zomin - **91,8 %**, Sh. Rashidov - **-90,9 %** tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha **23** ta muassasada **1 977** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **2,0 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **30 106,3** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **4,4 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **5076,1** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **92,0 %** ga pasaydi.






Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **100,6 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod - **97,9 %**, Do'stlik -**69,1 %**, Baxmal -**19,2 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.

(2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Jizzax viloyati bo'yicha 2021 - yil yanvar -mart oylarida 2020 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati yashash va ovqatlanish sohasida **39,9 %**, axborot va aloqa sohasida **29,3 %**, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida **25,1 %**, qurilish sohasida **18,9 %** tashish va saqlash sohasida **10,4 %** kuzatildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-mart oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **2 864,3** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **124,6 %**) ni tashkil etgan bo'lsa, Baxmal tumanida **2 221,0** ming so'mni (**96,6 %**), Zomin tumanida **2131,7** ming so'mni (**92,7 %**), Zarbdor tumanida **2 095,6** ming so'mni (**91,2 %**) va Paxtakor tumanida **2089,0** ming so'mni (**90,9 %**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari (2021- yil yanvar-mart ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %.
Jizzax viloyatida	2175,4	2298,8	105,7
Jizzax shahri	2755,1	2864,3	104,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2069,6	1906,9	92,1
Baxmal	2050,8	2221,0	108,3
G'allaorol	1762,2	1829,8	103,8
Sharof Rashidov	1857,7	1977,5	106,4
Do'stlik	1926,8	2067,5	107,3
Zomin	2022,7	2131,7	105,4
Zarbdor	1903,4	2095,6	110,1
Zafarobod	1842,6	1792,7	97,3
Mirzacho'l	1920,8	2001,7	104,2
Paxtakor	1907,8	2089,0	109,5
Forish	1713,2	1855,6	108,3
Yangiobod	1881,7	2049,4	108,9

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil fevral oyidan 747,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi.**

Тел:72-221-51-19